

Allohning tuyasi



15:00 / 09.05.2021 4484

Solih: «Qaysi oyatni xohlaysizlar?» desa, ular: «Agar rostgo'y bo'lsang, biz uchun shu tog'dan homilador tuya chiqargin!» deyishdi. Odamlar tuyani tosh emas, tuya tug'ishini yaxshi bilardilar, Tuyaning yerdan o'sib chiqmasligi yoki toshdan paydo bo'lmasligi hammaga ma'lum edi. Ular Solihni ojiz qoldirib, g'alaba nashidasini surishlariga aniq ishongandilar. Lekin Allohga haqiqiy iymon keltirgan Solih alayhissalom U zotning barcha narsaga qodirligini bilar edi.

Solih, insonlar talab qilganidek Allohga duo qildi. Tog'dan homilador bir tuya chiqdi va tug'di. Insonlar hayratlanib, dahshatga tushishdi. Lekin ular ichida bir kishidan boshqa hech kim iymon keltirmadi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad